

**JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHNING MILLIY
IQTISODIYOTLAR RIVOJLANISHIGA TAHLILIIY ASOSLARI****Kamaljonova Go'zal Axmedjonovna**

JPMM metodisti va Sambahram

universiteti II bosqich magistranti

Email: kamaljonovago'zal@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonining milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada JSTning asosiy tamoyillari, tashqi savdo liberallasuvi, raqobat muhiti shakllanishi hamda milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari tajribasi asosida JSTga a'zo bo'lishning iqtisodiy natijalari tahlil qilinib, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun potensial ijobiy va salbiy jihatlar yoritilgan. Maqola yakunida JST a'zoligidan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Jahon savdo tashkiloti, milliy iqtisodiyot, tashqi savdo, MDH, raqobat, iqtisodiy integratsiya, globalizatsiya.

**АНАЛИТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЛИЯНИЯ ВСТУПЛЕНИЯ В ВТО НА
РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОНОМИК****Камалджонова Гузаль Ахмеджановна**

Методист JPMM и магистрант II курса

университета Самбахрам

Email: kamaljonovago'zal@gmail.com

Аннотация: В данной статье проанализировано влияние процесса присоединения к Всемирной торговой организации (ВТО) на развитие национальных экономик. Рассмотрены основные принципы ВТО, либерализация внешней торговли, формирование конкурентной среды, а также возможности выхода национальных производителей на международные рынки. На основе опыта стран СНГ исследованы экономические результаты членства в ВТО, выявлены потенциальные положительные и отрицательные стороны для экономики Узбекистана. В заключение представлены практические рекомендации по эффективному использованию преимуществ членства в ВТО.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, национальная экономика, внешняя торговля, СНГ, конкуренция, экономическая интеграция, глобализация.

ANALYTICAL FOUNDATIONS OF THE IMPACT OF WTO MEMBERSHIP ON THE DEVELOPMENT OF NATIONAL ECONOMIES

Kamaljonova Guzal Akhmedjonovna

Methodologist at JPMM and 2nd-year Master's student,

Sambahram University

Email: kamaljonovago'zal@gmail.com

Annotation: *This article analyzes the impact of the process of accession to the World Trade Organization (WTO) on the development of national economies. The paper examines the main principles of the WTO, the liberalization of foreign trade, the formation of a competitive environment, and the opportunities for domestic producers to enter international markets. Based on the experience of the Commonwealth of Independent States (CIS) countries, the economic outcomes of WTO membership are analyzed, highlighting both the potential benefits and challenges for Uzbekistan's economy. The article concludes with practical recommendations for the effective utilization of WTO membership advantages.*

Keywords: *World Trade Organization, national economy, foreign trade, CIS, competition, economic integration, globalization.*

Bugungi globallashuv davrida xalqaro savdo tizimida ishtirok etish har bir davlat uchun muhim strategik vazifalardan biridir. Jahon savdo tashkiloti (JST) dunyo iqtisodiy tartibotining markazida turib, a'zolar o'rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga soluvchi yagona xalqaro institut sifatida faoliyat yuritadi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish masalasi 1994-yildan buyon kun tartibida bo'lib, so'nggi yillarda bu jarayon jadallashdi. JSTga qo'shilish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sarmoyalar oqimini jalb etish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish kabi bir qator ijobiy omillarni taqozo etadi [1].

JSTning maqsad va vazifalari-Jahon savdo tashkiloti 1995-yilda tashkil topgan bo'lib, uning asosiy maqsadi xalqaro savdo to'siqlarini kamaytirish, savdoni erkinlashtirish va a'zolar o'rtasida adolatli raqobatni ta'minlashdan iborat. JST shaffoflik, kamsitmaslik va o'zaro manfaatlilik tamoyillariga asoslanadi [2].

Milliy iqtisodiyotlarga JST a'zolidigining ta'siri-JSTga qo'shilgan davlatlar uchun eng muhim natija — tashqi savdo hajmining oshishi va investitsion jozibadorlikning kuchayishidir. Masalan, Gruziya JSTga a'zo bo'lgach, 5 yil ichida eksport hajmi 1,8 barobar oshgan, Qozog'istonda esa chet el investitsiyalari oqimi 25 foizga ko'paygan [3]. Biroq a'zolik bilan bir qatorda, import oqimining ortishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatga bardosh berolmaslik xavfi ham mavjud.

Raqobatga bardosh berolmaslik xavfi deganda, Jahon savdo tashkilotiga a'zolikdan keyin milliy ishlab chiqaruvchilar xorijiy kompaniyalar bilan teng sharoitda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lishi natijasida ichki bozorning ochilishi tufayli mahalliy korxonalarning raqobatda yutqazish ehtimoli tushuniladi. Bu holat odatda ishlab chiqarish texnologiyalarining eskiligi, mahsulot sifati va marketing tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ishlab chiqarish tannarxining yuqoriligi kabi omillar bilan bog'liq bo'ladi. Natijada, ichki ishlab chiqarish qisqarishi, ayrim tarmoqlarda ishlab chiqaruvchilar faoliyatining to'xtashi, importning ortishi va milliy iqtisodiyotning tashqi raqobat bosimiga berilishi mumkin. Shu sababli, JSTga qo'shilayotgan davlatlar o'z ichki bozorini himoya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat yuritishlari zarur.

MDH mamlakatlari tajribasi-MDH davlatlari ichida Rossiya (2012), Qirg'iziston (1998), Gruziya (2000) va Armaniston (2003) JSTga a'zolikni qo'lga kiritgan. Bu davlatlarda dastlabki yillarda ayrim sohalarda inqiroz holatlari kuzatilgan bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sish barqarorlashgani qayd etilgan [4]. Masalan, Rossiyada JST a'zolidan keyingi 10 yil ichida sanoat mahsulotlari eksporti 27 foizga o'sdi. Qirg'izistonda esa turizm va yengil sanoat sektori rivojlanish sur'atini tikladi. MDH mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, JSTga a'zolikning ijobiy ta'siri uzoq muddatda namoyon bo'ladi. Barcha mamlakatlarda dastlabki yillarda ayrim tarmoqlarda inqiroz holatlari kuzatilgan, ammo: eksport va investitsiya oqimi barqaror o'sgan; raqobatbardoshlik va iqtisodiy shaffoflik oshgan; xalqaro hamkorlik va savdo hajmi kengaygan.

O'zbekiston uchun JST a'zolidan istiqbollari: O'zbekiston iqtisodiyoti uchun JSTga a'zolik quyidagi ijobiy natijalarni keltirishi mumkin:

- eksport salohiyatining oshishi va yangi bozorlar ochilishi;
- xorijiy sarmoyalar jalb etilishi;
- texnologik yangilanish va ishlab chiqarish samaradorligining oshishi.

Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda raqobat kuchayishi, subsidiyalarning kamayishi va bojxona himoyasi kamayishi natijasida qisqa muddatli yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Shu sababli davlat tomonidan iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi muhimdir [5]. Davlat tomonidan iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi — bu iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bir vaqtning o'zida keskin o'zgarishlar kiritish o'rniga, har bir sohada islohotlarni izchil, rejalashtirilgan va vaqt oralig'ida amalga oshirishni anglatadi. Bunday yondashuv, ayniqsa JSTga a'zolik jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, milliy ishlab chiqaruvchilarni yangi sharoitga moslashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish imkonini beradi. Bosqichma-bosqichlik tamoyili davlatga iqtisodiy o'zgarishlarning ijtimoiy oqibatlarini yumshatish, ish o'rinlarini saqlash, sarmoya

oqimini izchil boshqarish hamda bozor mexanizmlarini asta-sekin joriy etish imkonini beradi. Shu orqali davlat xalqaro savdo tizimiga qo‘shilishni nafaqat tashqi, balki ichki iqtisodiy manfaatlarga ham mos ravishda amalga oshiradi.

Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish har bir davlat uchun muhim iqtisodiy bosqichdir. Bu jarayon iqtisodiyotni xalqaro savdo tizimi bilan uyg‘unlashtiradi, raqobatni kuchaytiradi, investitsiyalarni jalb etadi va milliy ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. MDH mamlakatlari tajribasi JST a‘zolidan dastlabki davrida ayrim sohalarda muammolar yuzaga kelishini, ammo keyingi bosqichlarda bu jarayon iqtisodiy o‘sish va modernizatsiya uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi. O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lish orqali xalqaro bozorlar bilan integratsiyani yanada chuqurlashtiradi, eksport hajmini oshiradi va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Eng muhimi, bu jarayon mamlakatni global iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylantiradi va uzoq muddatda barqaror rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi. Jahon savdo tashkilotiga a‘zolik — bu milliy iqtisodiyotni global tizimga integratsiyalash jarayonidir. O‘zbekiston JSTga a‘zolik orqali xalqaro savdo maydonida o‘z mavqeini mustahkamlashi, eksport salohiyatini kengaytirishi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashi mumkin. Biroq bu jarayon puxta tayyorgarlikni, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashni va iqtisodiy sohalarda tizimli islohotlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Trade Organization. *Understanding the WTO*. Geneva, 2023.
2. Krugman, P. & Obstfeld, M. *International Economics: Theory and Policy*. Pearson Education, 2021.
3. World Bank Data (2022). *Trade indicators by country*.
4. Azizov, A. (2022). “Jahon savdo tashkilotiga a‘zolikning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri”. *Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali*, №4, 55–62-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *O‘zbekistonning JSTga a‘zolik jarayoni va islohotlar*. Toshkent.